

TILLARNI O'QITISHDA INTEGRATSION METODLARNING AHAMIYATI

Ergasheva Durdona Faxriddin qizi*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Abstract: *This article discusses the importance of integration in education and the importance of this phenomenon in the process of teaching different languages. Also, during the lesson, recommendations will be made regarding the organization of interesting methods and methods of teaching by connecting the topics of school textbooks.*

Key words: *education, technology, linguistics, style, method, connection, direction, new research.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'limga integratsiyaning kirib kelishi hamda turli xil tillarni o'qitish jarayonida bu hodisaning qay darajada muhim ahamiyatga egaligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, dars davomida maktab darsliklaridagi mavzularni bir-biriga bog'lagan holda o'rgatish usullari va qiziqarli metodlarni tashkil qilish borasida tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, texnologiya, tilshunoslik, uslub, metod, bog'liqlik, yo'nalish*

KIRISH

Hozirda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy mohiyati ta'lim mazmuni va shaklini rivojlantirishga qaratilgan hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatimizning demokratlashuvi, axborot maydonining kengayib borishi kabi omillar o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlariga, jumladan, idrok eta olish, tasavvur va fikrlash va boshqa mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining tezlikda rivojlanishiga olib keldi. O'quv jarayonida fanlararo bog'liqlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatining oshirilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimiga kiritilayotgan pedagogik texnologiya jarayonida integratsiyaning birinchi o'rinni egallashi uning qay darajada keng ko'lamli ekanining yorqin misolidir. So'nggi vaqtlarda respublikada integratsion ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida Qonun"i, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da [1] ta'lim mazmuni bilan shaklini bosqichma bosqich takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning 70%i ta'lim sistemasida integrativ xarakterdagi o'quv dasturlar va darsliklar bilan ishlayotadilar. Umumta'lim fanlarini o'qitishga zamon talablari asosida yondashish, ta'limda eng ilg'or texnologiyalarni qo'llash davr talabiga aylandi. Ta'lim jarayonini yangi mazmun va yangi shaklda yo'lga qo'yishda integrativ yondashuv talab etiladi.

ASOSIY QISM VA TADQIQOT METODLARI

“Integratsiya” - ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir [1.380]. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Integratsiyani tafakkur o‘stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa va ta‘lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etish mumkin.

Ma‘lumki, maktablarda fanlar miqdori kundan kunga oshib bormoqda. Ushbu jarayon har doim ham foyda keltirmaslik bilan birga o‘quvchilarning fanlarga nisbatan qiziqishlari kamayishiga va olingan bilimlarni tez yoddan chiqarishlariga sabab bo‘ladi. Boisi, bugungi zamonaviy texnologiya asri sonning va sanoqning orqasidan borish o‘rniga, sifat o‘rishini va samarali natijalarni taqozo etmoqda.

Bu borada ko‘plab rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin.

Sababi bu kabi davlatlarning ko‘pi allaqachon o‘z ta‘lim tizimiga integratsiyani olib kirgan va integrativ fanlarni joriy qilgan. Finlandiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Koreya, Vengriya, Kanada, Shveysariya, AQSh va boshqalar shular jumlasidandir.

Bu jarayon bizning ta‘lim tizimimizga ham eng o‘qitoshning eng samarali usuli sifatida kirib keldi.

Integratsiya – “butun” degan ma‘noni bildiradi, demak, bu tafakkur o‘rishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta‘limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda o‘qitishni ko‘rsatadi.

Ta‘lim tizimida ona tili darslarini olib borishda bu fanni bevosita adabiyot bilan bog‘lab o‘qitish yaxshi natija beradi.

Fanlararo aloqa va integratsiyaning maktablarda o‘qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko‘p pedagog olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Ta‘lim integratsiyasi o‘quvchi faoliyatiga, bu faoliyatning samaradorlik ko‘rsatkichi muntazam ortib borishiga yo‘naltirilgan, uning bosh maqsadi bilimlarni samarali o‘zlashtirishdangina iborat emas, aksincha, bilimlarni o‘quvchi eng qulay, oddiy tushuncha va tasavvurlardan murakkabga tomon boruvchi izlanish-intilishlari asosida uzluksiz o‘zlashtirilishini ko‘zda tutadi.

Oddiy mavzular asta-sekin murakkablashib, ma‘lumot, tushuncha, tasavvurlar shaklidan yaxlit, mujassam bilim va malakaga aylanib boradi.

Bu bilim hamda malakalardan o‘quvchilar zarur vaziyatlarda muayyan hayotiy muammoni hal qilishda bimalol foydalanish layoqati tarkib toptiriladi. [4.:87] Integratsiyaning ta‘lim tizimida qay darajada muhimligini birinchilardan bo‘lib mashhur pedagog – I.F. Gerbart tushuntirib bergan. U ta‘limda integratsiyadan foydalanishning to‘rtta yo‘nalishini ishlab chiqqan. Bular quyidagilar: [2.:49]

Aniqlilik;

Asotsiatsiyaviylik;

Tizim;

Metod.

Amaliy misollar Integratsiyaning birinchi va ikkinchi yo‘nalishlari bilim olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ikkinchi va uchinchi yo‘nalishlari eski bilimlar va yangi bilimlarni bir- biri bilan uzviy bog‘lash demakir.

I.F Gerbart bu yo'nalishlar orqali integratsiyalashuv jarayoni mukammal ravishda sodir bo'ladi deb aytib o'tgan[2.:53].

Yuqori sinfda badiiy asarning tili o'rganilayotganda stilistik tahlil mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Stilistik tahlilda asarning g'oyaviy mazmunini ifodalovchi til vositalari aniqlanadi, muallifning so'z tanlash, gap tuzish mahorati ko'zdan kechiriladi.

Masalan, o'quvchilar ingliz tili darslarini o'rganar ekanlar ona tili darslaridagi leksik birliklardan foydalangan holda ularni ingliz tiliga tarjima qilishlari, yoki ingliz tilidagi maqollarni eslab qolish uchun ularning o'zbek tilidagi munosib variantlarini topishlari va boshqa ko'plab grammatik mavzularni bir-biriga bog'lagan holda o'rganishlari mumkin.

Ushbu metodika nafaqat xorijiy tillarni o'rgatishda, balki o'zbek tili va dabiyotini o'rgatishda ham sezilarli ahamiyatga ega.

Masalan, Oybekning "Navoiy" romani bo'yicha mustaqil mashg'ulot olib borilar ekan, o'quvchilarda yozuvchining so'z tanlash va ularni o'zaro bog'lash usullari, shuningdek, tinish belgilarining ishlatilishi aniqlanadi.

Ona tili darslarini adabiyot bilan uyg'unlikda olib borish, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashlarini yanada boyishiga olib keladi.

Aynan tilga aloqador biror bir nazariy ma'lumot o'rgatilayotgan bir paytda o'quvchilarga aynan shu damda adabiyotdan o'tilayotgan hikoya, asardan parchalardan misollar topib kelish va ularni til nuqtayi nazaridan tahlil qilishga o'rgatib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Integratsiya orqali o'quvchilar tilni real hayotdagi voqealar va muammolarga bog'lab o'rganadilar, bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishga hizmat qiladi. O'quvchi nafaqat xorijiy tilni, balki boshqa fanni ham yaxshiroq o'zlashtiradi.

Bu rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan CLIL(Content and language integrated learning- Mazmun va til integratsiyasi) yondashuvining asosidir. Integratsion metodning afzalliklaridan biri sifatida madaniyatlararo kompetensiyani ham keltirishimiz mumkin.

Til darslari boshqa mamlakat madaniyati, tarixi yoki geografiyasini o'rgatish bilan boyitilsa, bu o'quvchilarda global tafakkurni shakllantiradi.

Amaliy misollar:

Biologiya+ingliz tili: " environment" mavzusini ingliz tilida o'rganish

Tarix+ingliz tili: " Registan Square" mavzusida 2 daqiqalik nutq tayyorlash

XULOSA. Xorijiy tillarni integratsion metodlar yordamida o'qitish o'quvchilarni tilga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi, ularda o'rganilayotgan tilde fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Til endi ular uchun faqat dars emas, balki hayotining bir qismiga aylanadi.

Bu metod orqali o'rganilgan so'zlar passiv xotirada emas, doimiy foydalaniladigan so'zlar qatoridan joy oladi. Til o'rganish jarayoni qiziqarliroq va osonroq kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida // PF-6084-son. – T., 2020
2. Mavlonova R. Boshlang'ich ta'lim integrasiyasi. -T., 2009.
3. Mavlonova, K. (2016). Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o'rganish metodikasi. Mashhur-press.
4. Musayev, U. (2002). Integratsiya darajalari. Xalq ta'limi - №6
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. (1981). M.: Русский язык.
6. Холиқова, Н. (2020). Ўзбек мумтоз адабиётида хотин-қизлар образининг бадий тадрижи (Ширин образи мисолида). Academic research in educational sciences, (3).